Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishda asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Bugungi kunda axborot resurslari insoniyat taraqqiyotining strategik omiliga aylangan. Axborot texnologiyalari orqali boshqaruv qarorlarini asoslash, monitoring tizimlarini takomillashtirish va moliyaviy nazoratning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash imkoniyati mavjud. Shu nuqtai nazardan, axborot texnologiyalarini davlat moliyaviy nazoratida keng joriy etish zarurati dolzarb ilmiy va amaliy masala sifatida namoyon bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING SHAHRI

"Axborot" tushunchasi ko'plab mavjud lug'atlarda deyarli bir xil talqin qilinadi va bir xil ma'noga ega. Ushbu tushunchani to'g'ri talqin qilish uchun S.I. Ojegov va N.Yu. Shvedovalar hamda S.A. Kuznesov tahriri ostida nashr etilgan rus tili izohli lug'atlariga murojaat qilish muhim³. Ushbu manbalarda "axborot" atamasi tevarakatrofdagi voqealar va hodisalar haqida to'planib, insondan insonga uzatilish qobiliyatiga ega bo'lgan ma'lumotlar sifatida izohlanadi.

S.A. Kuznesovning izohli lug'atida "texnologiyalar" tushunchasi ma'lum natijalarga erishish uchun zarur bo'lgan vositalar, mexanizmlar va usullar majmui sifatida talqin qilinadi⁴. Shu mazmun zamonaviy rus tilining boshqa izohli lug'atlarida ham qayd etilgan⁵. Axborot texnologiyalarining tarixi o'z ildizlarini zamonaviy sivilizatsiyadan oldingi davrlarga borib taqaladi. Inson nutqi paydo bo'lgan paytdan boshlab kishilar tevarakatrofdagi ma'lumotlarni bir-biriga uzata boshlaganlar. Bu borada inson nutqi eng birinchi axborot texnologiyasi sifatida ko'riladi. Inson tovushlardan so'z yasash imkoniyatiga ega bo'lgan a'zolari orqali axborot almashinuvining dastlabki vositasini yaratdi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari deganda, elektron hisoblash mashinalari yordamida axborotlarni yaratish, saqlash, uzatish va boshqarish jarayonlariga doir ilmiy va amaliy faoliyat yo'nalishlarining keng ko'lamli tushuniladi. Zamonaviy talqinda axborot texnologiyalari resurs talabchan va murakkab jarayonlar hamda vazifalarni bajarishda axborotni to'plash, tahlil qilish va yetkazish usullarining majmuasi sifatida qaraladi.

"Davlat boshqaruvi" tushunchasi esa ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oluvchi, davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladigan reja va strategiyalar asosida jamiyat manfaatlarini ifodalovchi murakkab faoliyat majmuasini anglatadi. Bu ta'rif yuridik adabiyotlarda ham mustahkamlangan⁶. Shunday ekan, davlat boshqaruvida axborot texnologiyalari deganda, boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishda ma'lumotlarni to'plash, saqlash, tizimlashtirish va uzatishning zamonaviy usullari va vositalari tushuniladi. Ularning asosiy vazifasi – qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish va inson mehnatini yengillashtirishdan iborat.

Elektron hisoblash mashinalarining hisoblash va tahlil imkoniyatlari qarorlar qabul qilishda muqobil variantlarni ko'rib chiqish vaqti va xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi. Bu esa davlat moliyaviy nazoratining samaradorligini oshiradi va moliyaviy boshqaruvni zamonaviy sharoitlarga moslashtirish imkonini beradi⁷.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 10 iyuldagi PF-100-sonli "Budjet mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

2 <https://president.uz/uz/lists/view/7827>

3 Ojegov, S.I.; Shvedova, N.Yu. Толковый словарь русского языка. Издательство: М.: ITI Технологии; Издание 4-е, доп. 2006, 944 с.; Большой толковый словарь русского языка / Под ред. С.А. Кузнецова. СПб., Norint, 1998. - 1534 с.

4 Большой толковый словарь русского языка / Под ред. С.А. Кузнецова. СПб., Norint, 1998. - 1534 с.

5 Толковый словарь русского языка начала XXI века. Актуальная лексика: около 8500 слов и устойчивых словосочетаний / С.-Петерб. гос. ун-т, Филол. фак; Ин-т филол. issled. SPbGU; под ред. G.N. Sklyarevskoy. – М.: Eksmo, 2006. – 1131 с. Vestnik Akademii znaniy № 50 (3), 2022 337

6 Barixin A.B. Bolshaya yuridicheskaya ensiklopediya. (Seriya «Professionalnie spravochniki i ensiklopedii») – М.: Knizhny mir, 2010. – 960 с.

7 Temirov M. Davlat moliyaviy nazorati faoliyatiga ichki audit xizmatlarining ta'siri //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2023. – T. 24. – №. 5. – S. 92-98



Tadqiqotchi N. Latipovanning fikriga ko'ra, davlat moliyaviy nazorati mamlakat moliyaviy tizimini boshqarish va aniq hisobotlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy faoliyatdir. Ushbu faoliyat doirasida davlat tashkilotlariga yuridik va moliyaviy qoidalarga rioya qilish, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va hisobotlar tayyorlash kabi vazifalar yuklatiladi⁸.

Davlat moliyaviy boshqaruvida asosiy vazifalardan biri – byudjet mablag'larini yig'ish va ulardan oqilona hamda samarali foydalanishni ta'minlashdir. Bu ayniqsa o'tish davri iqtisodiyotiga ega davlatlar, jumladan O'zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda moliyaviy nazorat XX asr oxirida rejali iqtisodiyot sharoitida shakllangan bo'lib, uning tamoyillari bozor iqtisodiyoti talablariga to'la mos kelmas edi. Shu sababli, rivojlangan davlatlar tajribasi asosida budjet tizimini isloh qilish va takomillashtirish muhim masala sifatida o'rganilmoqda⁹.

Axborot texnologiyalarining rivojlanish darajasi tarixda turli bosqichlarni bosib o'tgan. Bu bosqichlar orqali texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari va maqsadlari sezilarli darajada kengaydi. Axborot texnologiyalarining rivojlanish bosqichlari 1-jadvalda ko'rsatilgan.(1-jadval)

Shuningdek, 1-rasmda axborot texnologiyalarining asosiy turlari tasvirlangan bo'lib, ular hozirgi kunda ma'lumotlarni yaratish, qayta ishlash, saqlash va uzatish vositalari sifatida faol qo'llanilmoqda.(1-rasm)

1-jadval. Axborot texnologiyalarining rivojlanish bosqichlari¹⁰.

Bosqichlari	Xususiyatlari	Vositalari
“Qo'l mehnati” XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar	Kishilar ma'lumotlarni axborot tashuvchi qog'ozlarda qayd etadilar. Axborot texnologiyalarining mexanizatsiyalashgan turlari paydo bo'la boshladi.	Siyohdon; Siyohqalam; Qog'oz; Hisobga olish kitobi; Boshqalar.
“Mexanizatsiyalashgan” XIX asrning ikkinchi yarmi – XIX asrning oxiri	Pochta aloqasi – axborot uzatishning asosiy usuli. Elektrlashtirishning vujudga kelishi texnologik inqilob bo'lib xizmat qildi. Bu radio, telefon va telegrafning kashf etilishiga olib keldi.	-telefon; - fonograf; - yozuv mashinkasi.
“Elektrlashtirilgan” XIX asrning oxiri –XX asrning 40-60-yillari	Hujjatlarni nusxalash, kichik diktofonlar va boshqa ko'plab aaratlarning paydo bo'lishi. Axborot texnologiyalari asosiy konsepsiyalarini o'zgartirish.	Elektron hisoblash mashinalari; Elektrlashtirilgan yozuv mashinalari.
“Elektron” XX asrning 70-yillari – XX asrning 80-yillari	Ish jarayonining avtomatlashtirilishi, yangi axborotlarni izlash	Ijtimoiy jarayonlarning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari
“Kompyuterlashtirilgan” XX asrning 80-yillaridan – hozirgi vaqtgacha	Boshqaruvning axborotlashtirilgan tizimi o'zining takomillashtirilgan tizimida katta aylanmalarni tera boshladi. Boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi axborot texnologiyalarining asosiy vazifalaridan biri bo'lib qoldi. “Internet” tarmog'ining tarqalishi. Axborot texnologiyalari rivojlana boshladi.	Personal kompyuter; Mobil aloqa apparatlari; Idora va maishiy texnika; Internet.

Har qanday axborot texnologiyalarining asosini ma'lumotlar bazasi tashkil etadi. Aynan ushbu bazalar tashkilotlarda mavjud bo'lgan turli jarayonlar haqidagi ma'lumotlarning jamg'arilishini, saqlanishini va tizimlashtirilishini ta'minlaydi. Ma'lumotlar bazasi – bu axborot texnologiyalarining akkumulyativ (to'plovchi) komponenti sifatida, barcha axboriy oqimlarning markazida turadi.

Matnli va jadvali protsessorlar esa matnli hujjatlarni yaratish, tahrirlash va tizimlashtirish uchun mo'ljallangan bo'lib, ular ma'lumotlar bazasini shakllantirishda asosiy vosita vazifasini o'taydi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu turdagi texnologiyalar axborotlarni aniq, tuzilgan va boshqariladigan shaklda saqlashga imkon beradi.

Elektron pochta (e-mail) tizimi esa foydalanuvchilarga ma'lumotlarni saqlash va tezkor uzatish imkonini beruvchi samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Bu tizimlar foydalanuvchilar o'rtasida uzluksiz axborot almashinuvini ta'minlab, ish jarayonlarining uzluksizligini qo'llab-quvvatlaydi.

8 Latipova N. Davlat moliyaviy nazorati va ichki audit xizmatini transformatsiya qilishning fundamental asoslari masalalarining yoritilishi //Innovative Development in Educational Activities. – 2024. – T. 3. – №. 4. – S. 197-200.

9 Allen R., Tommasi D. Managing Public Expenditure. A reference book for transition countries. Paris, OECD, 2001


10 Nesmianova I.O. Informatsionnye tekhnologii: etapi razvitiya, ponyatie i klassifikatsiya // Izvestiya Turskogo gosudarstvennogo universiteta. Ekonomicheskie i yuridicheskie nauki. 2020. № 1. S. 149-155



Bundan tashqari, davlat hokimiyati organlari tomonidan fuqarolarning murojaatlarini elektron shaklda qabul qilish va qayta ishlash imkonini beruvchi axborot tizimlari keng joriy etilmoqda. Ushbu texnologiyalar aholi bilan ochiq muloqot va tezkor bog'lanish imkoniyatini yaratadi.

Elektron kalendarlar esa mahalliy kompyuter tarmoqlari yordamida tashkilot ichidagi ish jarayonlarini rejalashtirish, boshqarish va muvofiqlashtirish imkonini beradi. Ular xodimlarning samarali bandligini va muhim uchrashuvlar, topshiriqlarning esdan chiqmasligini ta'minlaydi.

Bugungi kunda videokonferensiya texnologiyalari zamonaviy kommunikatsiya vositalari sifatida real vaqt rejimida muhim muloqotlar, uchrashuvlar va muzokaralarni o'tkazishda keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida ushbu texnologiyalar karantin cheklovlari sharoitida ish jarayonlari va ta'lim tizimining uzluksizligini saqlab qolishda muhim rol o'ynadi.



1-rasm. Axborot texnologiyalarining asosiy turlari¹¹.

Faks aloqasidan foydalanish ham bugungi kunda dolzarbligini saqlab qolmoqda. Bu aloqa turi faks apparati yordamida bir joyda o'qilgan tasvirni boshqa joyda qayta ishlab chiqarishga asoslanadi. Biroq, davlat boshqaruvida qo'llanilayotgan axborot texnologiyalarining asosiy turlari haqida to'xtalib o'tish zarur.

"Elektron hukumat" tushunchasining shakllanishi bevosita hokimiyat organlarining fuqarolarga yaqinlashish ehtiyoji bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasida "Elektron hukumat" konsepsiyasi ustida ishlar XXI asr boshlarida boshlangan. Ayni konsepsiyaning vujudga kelishi va amaliyotga joriy qilinishi jarayoni xorijiy davlatlarga nisbatan nisbatan kech boshlangan bo'lsa-da, mamlakatda elektron boshqaruvga o'tish yo'lida muhim yutuqlar kuzatilmoqda.

Axborot texnologiyalari fuqarolarning hayotiy ehtiyojlarini qamrab olgan holda, davlat boshqaruvi tizimida ham joriy etila boshlandi. Ilk bosqichlarda bu texnologiyalarning vazifasi, asosan, muhim davlat hujjatlarini tizimlashtirish, ularga ishlov berish va saqlashdan iborat edi. Sovet davri tajribasi ham axborot texnologiyalarining davlat boshqaruvidagi rivojlanishiga oid turli konsepsiyalarni o'zida mujassamlashtirgan.

XX asr boshlarida kompyuter texnologiyalari o'zining rivojlanish cho'qqisiga chiqdi. Shu davrda ko'plab mutaxassislar kompyuter tizimlarining funksional imkoniyatlarini cheklab bo'lmagligini anglay boshladilar. Aynan shu vaqtdan boshlab davlat boshqaruvida axborot texnologiyalaridan foydalanish zarurati kuchaydi. Asosiy g'oya shundan iborat ediki: davlat axborot-kommunikatsiya vositalari orqali o'z fuqarolari bilan samarali va ikki tomonlama aloqani yo'lga qo'yishi lozim.

Shu tariqa, davlat boshqaruvinin yangi konsepsiyasi shakllandi, u esa "Elektron hukumat" g'oyasining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Davlat moliyaviy nazoratida axborot texnologiyalarining joriy etilishi esa nisbatan yangi amaliyot hisoblanadi. Shu sababli ham bu tushunchaning yakdil, umumqabul qilingan ta'rifi mavjud emas. Tushuncha ko'proq tadqiqot olib borayotgan subyektnin yondashuvi asosida shakllanadi.

Hozirgi kunga kelib, davlat boshqaruvida axborot texnologiyalariga berilgan har qanday ilmiy ta'rifni to'g'ri deb qabul qilish mumkin. Masalan, A.O. Smirnov o'zining ilmiy maqolasida axborot texnologiyalari va axborot-texnologik tizimlarini davlat boshqaruvida raqobat sharoitida ustunlikka olib keluvchi muhim omil sifatida ko'rsatadi. Unga ko'ra, innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarurati taqdim qilinayotgan davlat xizmatlarini takomillashtirish bilan bevosita bog'liqdir¹².

11 Дедок Н. М., Шарыпова В. А. Виды информационных технологий, используемых в правовой сфере // Colloquium-journal. – 2021. – № 14-4 (101). – С. 31–32.

12 Smirnov A.O. Razvitiye gosudarstvennogo upravleniya putem vnedrenie noveyshix informatsionnix texnologiy // Inno vatsionnaya nauka. 2020. № 2. S. 43-46.



Muallifning ushbu fikrlariga qo'shilmaslik mumkin emas, chunki davlat budjeti doirasida axborot texnologiyalari boshqaruv qarorlarini qabul qilishni yengillashtiradi hamda davlat siyosatida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishni soddalashtirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida dialektikaning asosiy qoidalari va tamoyillariga asoslangan ilmiy uslublardan foydalanildi. Xususan, davlat moliyaviy nazoratida axborot texnologiyalaridan foydalanish tendensiyalari hamda ularning me'yoriy-huquqiy asoslari bilan bog'liq hodisa va jarayonlar mantiqiylik va tarixiylik nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Bu jarayonda tegishli materiallarni to'plash, qayta ishlash va chuqur tahlil qilishga asoslangan yondashuv qo'llandi.

Ma'lumotlarni qayta ishlashda mantiqiy tahlil, sintez, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi. Iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o'rganishda esa tizimli yondashuv bilan birga statistik guruhlash usuli ham qo'llanildi. Ushbu metodlar asosida axborot texnologiyalarining davlat moliyaviy nazoratidagi o'rni, samaradorlik darajasi va huquqiy me'yorlarga integratsiyasi chuqur o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat boshqaruvi tizimiga axborot texnologiyalarini joriy etish jarayoni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-sonli¹³ Farmonga muvofiq yo'lga qo'yildi. Mazkur strategiya asosida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta'minlash hamda elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsad qilingan.

O'zbekistonda davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish jarayoni iqtisodiyotni shaffoflashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur raqamli yondashuv moliyaviy monitoringni kuchaytirish, ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish, hamda davlat budjeti mablag'larining oqilona va samarali sarflanishini ta'minlashga xizmat qilmoqda (2-jadval).

2 - jadval. O'zbekistonda davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish jarayonining tahlili¹⁴.

t/r	Raqamlashtirish yo'nalishi	Ta'sir va natijalar
1.	Elektron budjet tizimi	Davlat mablag'larining shaffofligi oshdi, budjet xarajatlari onlayn monitoring qilinishi ta'minlandi
2.	Elektron soliq xizmati	Soliq to'lovchilar uchun qulaylik yaratildi, soliq to'lovlarini nazorat qilish samaradorligi oshdi.
3.	Moliyaviy audit platformalari	Tekshiruv jarayonlari avtomatlashtirildi, inson omili ta'siri kamaydi.
4.	Korrupsiyaga qarshi elektron monitoring	Shubhali moliyaviy operatsiyalarni aniqlash va oldini olish imkoniyati oshdi.
5.	Davlat xaridlarini raqamlashtirish	Tender jarayonlari shaffoflashdi, raqobat muhiti yaxshilandi.

Raqamlashtirish jarayoni moliyaviy nazorat samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar davlat mablag'laridan oqilona foydalanish, korrupsiyani kamaytirish va moliyaviy tizimda shaffoflikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish bo'yicha mavjud manbalar asosida quyidagi tahliliy jadvalni keltirish mumkin (3-jadval).

13 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-sonli Farmon: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

14 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining ma'lumotlari.

3-jadval. Davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish bo'yicha ko'rsatkichlar¹⁵.

.	Raqamlashtirish yo'nalishi	Ta'sir va natijalar
1.	"Davlat auditi" dasturi	2022 yil 1 apreldan boshlab, barcha davlat moliyaviy nazorati tadbirlari ushbu dasturda ro'yxatga olinishi belgilangan. Bu nazorat tadbirlarining shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.
2.	"Elektron nazoratchi-taftishchi" axborot tizimi	2022 yil mart oyida ushbu tizimning konsepsiyasi ishlab chiqilishi belgilangan bo'lib, bu moliyaviy nazorat jarayonlarini avtomatlashtirishga qaratilgan.
3.	Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi	2022 yil 14 fevraldagi PQ-128-son qaroriga, asosan, Moliya vazirligi huzuridagi davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi tashkil etilgan. Bu budjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni kuchaytirishga qaratilgan.
4.	"Fuqarolar ishtirokidagi audit" tizimi	2022 yildan boshlab, har chorakda kamida 2 ta ob'ektda fuqarolar ishtirokida audit o'tkazish belgilangan. Bu jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Raqamlashtirish jarayoni davlat moliyaviy nazorati samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mavjud ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda moliyaviy nazoratni raqamlashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Xususan, tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlarga o'tkazilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlari guruhlab chiqildi. Bu guruhlash xizmatlar sohasiga tegishli G dan S gacha bo'lgan bo'limlarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (MST) asosida muvofiqlashtirildi (4-jadval).

4-jadval. Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2025- yil yanvar)[76].


Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	64 784,6	100,0	111,4
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	5 312,2	8,2	121,6
Moliyaviy xizmatlar	11 864,5	18,3	113,2
Transport xizmatlari	13 162,4	20,3	108,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlar	6 479,9	10,0	109,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	11 047,5	17,1	111,1
Savdo xizmatlari	10 295,2	15,9	110,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	1 739,8	2,7	107,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	2 499,1	3,9	116,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1 455,2	2,2	109,2
Ijara xizmatlari	905,3	1,4	102,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	1 045,4	1,6	109,1
Shaxsiy xizmatlar	1 426,0	2,2	107,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	885,2	1,4	123,6
Boshqa xizmatlar	3 146,8	4,8	108,0

2024-yilda axborot va aloqa tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi 2,7 % ni tashkil etdi. Ushbu tarmoqda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat tarkibida asosiy ulush aloqa xizmatlariga – simli va mobil aloqa, internet tarmog'i va boshqa turdagi xizmatlarga to'g'ri kelib, umumiy hajmning 35,0 % ini tashkil etdi. Qolgan 65,0 % lik ulush esa axborot va aloqaning boshqa tarmoqlari – nashriyot faoliyati, kompyuter dasturlashtirish, dasturlar yaratish, teleko'rsatuv va radioeshittirish kabi xizmatlar hissasiga to'g'ri keldi (1-rasm).

15 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining ma'lumotlari.



Shuningdek, 2024-yilda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlarining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi 2,4 % ni tashkil etdi. Ushbu tarmoqda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi quyidagicha taqsimlandi: 38,2 % – aloqa xizmatlari, 43,3 % – kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar, 9,6 % – ma'lumotlarni joylashtirish va ishlov berish xizmatlari hamda Web-portallar, 5,5 % – dasturiy ta'minotni ishlab chiqarish, 3,4 % – kompyuterlar va aloqa uskunalari ta'mirlash xizmatlari hissasiga to'g'ri keldi¹⁶.



1-rasm. Aloqa va axborot tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati¹⁷.

Axborot texnologiyalarining davlat moliyaviy nazoratiga integratsiyasi jarayonida bir qator strategik maqsad va aniq vazifalarni belgilab olish muhim ahamiyatga ega. Ular davlat boshqaruvi tizimida samaradorlikni oshirish, shaffoflikni ta'minlash hamda fuqarolarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga qaratilgan.

Asosiy maqsadlar:

1. Davlat moliyaviy nazorati samaradorligini oshirish – byurokratik to'siqlarni qisqartirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezligini oshirish orqali nazorat mexanizmlarini kuchaytirish.
2. Elektron hukumatni rivojlantirish – davlat xizmatlarini raqamlashtirish, aholiga qulay va tezkor onlayn xizmatlar taqdim etish tizimini takomillashtirish.
3. Ta'sirchan va shaffof moliyaviy nazorat tizimini yaratish – ochiq ma'lumotlar bazasini shakllantirish, hisobdorlikni kuchaytirish va korrupsiya xavfini kamaytirish.
4. Davlat xizmatlarini avtomatlashtirish – fuqarolar va tadbirkorlar uchun uzluksiz, interaktiv va qulay xizmatlar ko'rsatish mexanizmlarini joriy etish.
5. Kiberxavfsizlikni ta'minlash – davlat axborot resurslarini ishonchli himoya qilish va axborot texnologiyalariga oid xavf-xatarlarni kamaytirish.
6. Huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish – raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan qonunchilikni yangilash, zamonaviy tashabbuslarni institutsional qo'llab-quvvatlash.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish bo'yicha asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- elektron hukumat platformalarini (my.gov.uz, e-sud, e-auksion va boshqalar) takomillashtirish;
- davlat organlari o'rtasida raqamli ma'lumot almashinuvi mexanizmlarini yaratish;
- fuqarolar uchun davlat xizmatlaridan onlayn foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- blokcheyn, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) kabi ilg'or texnologiyalarni joriy etish;
- davlat xizmatchilari uchun raqamli savodxonlikni oshirish va IT sohasida malaka oshirish tizimini kuchaytirish;
- ochiq ma'lumotlar platformasini rivojlantirish va aholiga ishonchli, shaffof statistik ma'lumotlarni taqdim etish.

Ushbu maqsad va vazifalar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining davlat moliyaviy nazoratida tizimli va strategik qo'llanilishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ularni izchil amalga oshirish orqali davlat boshqaruvi sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishi mumkin.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat statistika agentligining ma'lumotlari

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat statistika agentligining ma'lumotlari



XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat moliyaviy nazoratida axborot texnologiyalarining roli yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar va takliflar ilgari surildi:

1. Axborot texnologiyalarini davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlari turlicha bo'lib, ular sog'liqni saqlash, fan va ta'lim, kichik va o'rta biznes, elektron hukumat kabi sohalarni o'z ichiga oladi. Bu yo'nalishlarning barchasi davlat boshqaruvi tizimida axborot texnologiyalarining rivojlanish istiqbollarini belgilaydi. Ularni joriy etishda xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanilmoqda. Biroq har bir yangilik mamlakatimiz sharoitida darhol qo'llanilishi mumkin emas.

2. Bunga quyidagi omillar sabab bo'lmoqda: ko'pmillatli aholi tarkibi, diniy xilma-xillik va davlat hududining kengligi. Shunga qaramay, bugungi kunda mamlakatimizda yashayotgan aholi o'zini o'zbekistonlik sifatida anglab, strategik muhim vazifalarni hamjihatlikda hal etishga intilmoqda.

3. Ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etish zarurati mavjud ekan, davlat boshqaruvini soddalashtirish va optimallashtirish maqsadida axborot texnologiyalarini rivojlantirish dolzarb bo'lib qoladi. Davlat boshqaruvi tizimi ijtimoiy hayotning ko'plab sohalari bilan chambarchas bog'liq holda tashkil etilishi kerak.

4. Fan va innovatsiyalar rivojlanish darajasi oshgan sari raqamli muhit ham mustahkam va samarali shakllanadi. Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar salohiyatiga qo'yilayotgan talablar ortib bormoqda. Davlat boshqaruvi jarayonlarining innovatsion texnologiyalar yordamida boshqaruv qarorlarini qabul qiluvchi rahbarlar zimmasiga yuklanayotgani esa tabiiy holatdir.

5. Boshqaruv jarayonining maqsad va vazifalarini belgilash usuli bevosita boshqaruvchining salohiyatiga bog'liq. Davlat boshqaruvida axborot texnologiyalari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bu boradagi asosiy vazifa – aholining yangi axborotlarni olish, uzatish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishdir.

6. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi jamiyat hayotini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Davlat hokimiyati organlarida boshqaruv jarayonlarini axborotlashtirish avtomatlashtirilgan kompyuter tizimlari, idoralararo munosabatlar va aholi bilan muloqotni me'yoriy asosda tashkil etishni ta'minlaydi.

7. Mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish uchun davlat moliyaviy nazoratining asoslarini ilmiy asosda chuqur o'rganish va bu jihatlarni qonun hujjatlarida aks ettirish zarur. Hozirda davlat moliyaviy nazoratining tashqi, ichki, dastlabki, joriy va yakuniy shakllari shakllantirilgan. Bu jarayonlar davlatning maqsadli dasturlari va yo'l xaritalarini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi hamda moliyaviy barqarorlikni va tegishli qonunchilik talablarini ta'minlaydi. Davlat moliyaviy nazorati usullari sifatida moliyaviy holatni tahlil qilish, moliyaviy ekspertiza va reviziya qo'llaniladi.

8. Hozirgi kungacha davlat moliyaviy nazorati turli huquqiy va normativ hujjatlar asosida amalga oshirilgan. Shu sababli, davlat moliyaviy nazoratining yagona huquqiy asosini yaratish zarurati mavjud. Shuningdek, har bir vazirlikdagi ichki moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish, zamonaviy, samarali tashkiliy yechimlar asosida shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunday tizim xo'jalik faoliyati ustidan nazorat olib borish vazifasini ham bajarishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi PF-100-sonli "Budjet mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
3. Allen R., Tommasi D. Managing Public Expenditure. A Reference Book for Transition Countries. Paris, OECD, 2001.
4. Bolshoy tolkoviy slovar russkogo yazyka / Pod red. S.A. Kuznesova. – SPb.: Norint, 1998. – 1534 s.
5. Barixin A.B. Bolshaya yuridicheskaya entsiklopediya. (Seriya «Professionalnye spravochniki i entsiklopedii») – M.: Knizhniy mir, 2010. – 960 s.
6. Dedok N.M., Sharipova V.A. Vidi informatsionnykh tekhnologiy, ispol'zuyemykh v pravovoy sfere // Colloquium-journal. – 2021. – № 14-4 (101). – S. 31–32.
7. Latipova N. Davlat moliyaviy nazorati va ichki audit xizmatini transformatsiya qilishning fundamental asoslari masalalarining yoritilishi // Innovative Development in Educational Activities. – 2024. – T. 3. – № 4. – S. 197–200.
8. Nesmiyanova I.O. Informatsionnye tekhnologii: etapy razvitiya, ponyatie i klassifikatsiya // Izvestiya Turskogo gosudarstvennogo universiteta. Ekonomicheskoe i yuridicheskoe nauki. – 2020. – № 1. – S. 149–155.
9. Ojegov S.I., Shvedova N.Yu. Tolkoviy slovar russkogo yazyka. – M.: ITI Tekhnologii, 4-ye izdanie, dopolnennoe, 2006. – 944 s.; Bolshoy tolkoviy slovar russkogo yazyka / Pod red. S.A. Kuznesova. – SPb.: Norint, 1998. – 1534 s.
10. Smirnov A.O. Razvitie gosudarstvennogo upravleniya putem vnedreniya noveyshikh informatsionnykh tekhnologiy // Innovatsionnaya nauka. – 2020. – № 2. – S. 43–46.
11. Tolkoviy slovar russkogo yazyka nachala XXI veka. Aktual'naya leksika: okolo 8500 slov i ustoychivyykh slovosochetaniy / SPb. gos. un-t, Filol. fak.; In-t filol. issled. SPbGU; pod red. G.N. Sklyarevskoy. – M.: Eksmo, 2006. – 1131 s. // Vestnik Akademii znaniy. – № 50 (3), 2022. – S. 337.



12. Temirov M. Davlat moliyaviy nazorati faoliyatiga ichki audit xizmatlarining ta'siri // Iqtisodiyot va ta'lim. – 2023. – T. 24. – № 5. – S. 92–98.
13. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining ma'lumotlari.
14. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlari // www.stat.uz
15. <https://president.uz/uz/lists/view/7827>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
